

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi
№ 201400300

2014 yil 20 iyun

Institut kengashining
2014 yil 22 avgustdagi
№1 sonli qarori bilan
TASDIQLANGAN



NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA

HISOBI

fanining

O'QUV DASTURI

Bilim sohalari: 100 000 - Gumanitar soha;
200 000 - Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.

Ta'lim sohalari: 230 000 - Iqtisod.

Ta'lim mutaxassisliklari: 5A230702 – Bank hisobi va audit.

Toshkent – 2014

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti "Bank hisobi va audit" kafedrasida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

Qoraliev T.M. – TMI, "Banklarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedresi professori, i.f.n.

Navruzova K. – TMI, "Banklarda buxgalteriya hisobi va audit" kafedresi o'qituvchisi.

Taqrizchilar:

Karimov N.G. – Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti "Bank ishi" kafedresi mudiri professor, i.f.d. (turdosh OTMdan)

Marpatov M.D. – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "Buxgalteriya xisobi va xisoboti" departamenti direktori o'rinbosari (kadrlar buyurtmachisi)

Fanning o'quv dasturi Toshkent moliya instituti
O'quv-uslubiy Kengashida muhokama etilgan va tavsiya qilingan
(2014 yil "26" aprel 5-sonli bayonnoma)

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgach ijtimoiy sohaning markaziy bo'g'ini hisoblangan ta'lim yo'nalishiga katta e'tibor berib kelmoqda. Ta'lim yo'nalishining to'g'ri yo'lga qo'yilishi va oqilona tashkil etilishi mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni o'z vaqtida va to'liqligicha bajarilishiga zamin yaratadi. "Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" fanini o'rganish asosida nobank kredit tashkilotlarida bajariladigan turli operatsiyalarni, nobank kredit tashkilotlarning hisobvaraqlari rejasi bo'yicha hisobi va rasmiylashtirishni jahon andozalari asosida bajarishni, buxgalteriya balansining tahlili va moliyaviy hisobotlarini tuzish kabilarni o'zlashtiradilar va respublikada nobank kredit tashkilotlari faoliyatini va uning buxgalteriya hisobini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'sha oladilar.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

"Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi" fanining maqsadi - nobank kredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy hisobotlarini tuzish va tahlil qila olish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilinishini o'rgatish, jumladan:

- ❖ Mikrokredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari, mikrolizing, mikrokredit, mikroqarz, faktoring, iste'mol krediti bo'yicha operatsiyalari hisobi va ramiylashtirilishi;
- ❖ Mikrokredit tashkilotlarining kreditlash manbalari;
- ❖ Mikrokredit tashkilotlarining kassa operatsiyalarini hisobga olish va rasmiylashtirish;
- ❖ Mikrokredit tashkilotlarining kapitalini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalarni xisobga olish;
- ❖ Mikrokredit tashkilotlarining daromadlari va xarajatlarini xisobga olish;
- ❖ Lombardlar va ular faoliyatining asoslari;
- ❖ Lombardlar balansi va uning tuzilishi;
- ❖ Lombard tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari;
- ❖ Lombard tashkilotlari bajaradigan operatsiyalar hisobining tashkil etilishi haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, malaka va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Mazkur fan bo'yicha magistr:

- ❖ Nobank kredit tashkilotlari buxgalteriya xodimining vazifalari, bank

- balansi va uning tuzilishi;
- ❖ lombardlar va mikrokredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejalari va ularning tavsifi;
 - ❖ lombardlar va mikrokredit tashkilotlarining hujjatlar aylanishini tashkil qilish;
 - ❖ nobank kredit tashkilotlarining hisobotlari va uni tuzish *haqida tasavvurga ega bo'lishi*;
 - ❖ Nobank kredit tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-xuquqiy asoslari;
 - ❖ Mikrokredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish va rasmiylashtirish;
 - ❖ Mikrokredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari, mikrolizing, mikrokredit, mikroqarz, faktoring, iste'mol krediti bo'yicha operatsiyalari hisobi va rasmiylashtirilishi;
 - ❖ Lombard tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslarini *bilishi va ulardan foydalana olishi*;
 - ❖ Nobank kredit tashkilotlari faoliyatining rivojlantirish istiqbollarini belgilash;
 - ❖ Mikrokredit tashkilotlari buxgalteriya hisobini takomillashtirish istiqbollarini belgilash;
 - ❖ Mikrokredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari, mikrolizing, mikrokredit, mikroqarz, faktoring, iste'mol krediti bo'yicha rivojlanish istiqbollarini belgilash;
 - ❖ Lombard tashkilotlarini rivojlanish istiqbollarini belgilash *malakasiga ega bo'lishi talab etiladi*.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi fani ixtisoslik fani bo'lib hisoblanadi. Ushbu fan o'quv rejasida rejalashtirilgan "Markaziy bankda buxgalteriya hisobi" Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi" fanlaridan ham etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida mikrokredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobini tashkil etish va rasmiylashtirish, mikrokredit tashkilotlari tomonidan bajariladigan xizmatlar, mikrolizing, mikrokredit, faktoring, lombardlarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va rasmiylashtirish, lombardlar faoliyatining asoslari va hususiyatlari, lombard tashkilotlari tomonidan bajariladigan operatsiyalar hisobining tashkil etilishini o'rganish, axoli hamda kichik biznes sub'ektlarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash borasida muhim hisoblanadi. "Nobank kredit

tashkilotlarida buxgalteriya xisobi” fanini o’rganish natijasida magistrlar mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning operatsiyalari hamda ularni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida o’rganadilar, tijorat banklari buxgalteriya hisobi bilan ularning o’xshash va farqli tomonlarini bilgan holda, tijorat banklari bilan bir qatorda mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish ishlarini bajara oladilar.

Faning o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Magistrlarning “Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya xisobi” fanini o’zlashtirishlari uchun o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga ega. Fanni o’zlashtirishda darslik, o’quv va uslubiy qo’llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, elektron darslik, multimediyalar, virtual stendlar, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda nobank moliya institutlarining, jumladan, mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning web-saytlari ma’lumotlaridan foydalaniladi. Ma’ruza va amaliy darslarda mos ravishdagi ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

Shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda mavjud bo’lgan pedagogik texnologiyalarni izchil joriy etish, xususan talabalarga masofaviy ta’lim berish jarayonini amalga oshirish, bunda fanni masofaviy o’qitishda lozim bo’lgan texnika va texnologiyalardan foydalanish ham izchil o’rganiladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Nobank kredit tashkilotlari, ularning turlari va tashkil qilish asoslari

Nobank kredit tashkilotlari, ularni tashkil etish zarurati va ahamiyati. Nobank kredit tashkilotlarining turlari. Nobank kredit tashkilotlarini tashkil qilishning huquqiy va me'yoriy asoslari. Mikromoliyalash faoliyati va nobank moliya institutlari sohasidagi qonunchilik bazalarini yanada takomillashtirish.

Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi

Mikrokredit tashkilotlari, ular tomonidan bajariladigan xizmatlar. Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi. Mikrokredit tashkilotlarining buxgalteriya apparati va uning vazifalari. Mikrokredit tashkilotlarida ish kuni va ichki nazoratning tashkil etilishi. Analitik va sintetik hisobning yuritilishi. Mikrokredit tashkilotlari balansi va uning tuzilishi. Mikrokredit tashkilotlarida shaxsiy hisobvaraqlarni raqamlash va yuritish tartibi.

Mikrokredit tashkilotlarining kreditlash operatsiyalari va ularni hisobga olish.

Mikrokredit tashkilotlarining kreditlash manbalari. Chet el grantlari, nodavlat, notijorat tashkilotlari va boshqa kreditlash manbalari mablag'larini hisobga olish. Mikrokredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari. Mikrokreditlash operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Mikrolizing xizmatlari bo'yicha operatsiyalar hisobi va rasmiylashtirilishi. Faktoring operatsiyalarining buxgalteriya hisobi. Iste'mol krediti bo'yicha operatsiyalarning buxgalteriya hisobi. Kreditlar bo'yicha foiz hisoblash va undirish tartibi. Mikrokredit tashkiloti tomonidan olingan kreditlar va grantlar hisobi.

Mikrokredit tashkilotlarida kassa operatsiyalarining hisobi.

Mikrokredit tashkilotlarida kassa operatsiyalarining tashkil etilishi. Mikrokredit tashkilotlari kassalari tomonidan naqd pul va moddiy boyliklarning qabul qilinishi. Kirim kassa operatsiyalari va ularni hisobga olish tartibi. Chiqim kassa operatsiyalari va ular hisobining tashkil etilishi.

Mikrokredit tashkilotlarining asosiy vositalari, nomoddiy aktivlar, kam baxoli va tez eskiruvchi buyumlar hisobi

Mikrokredit tashkilotlarining asosiy vositalari, ularni sotib olish, balansga hisobga qo'yish va hisobdan chiqarish tartibi. Asosiy vositalar hisobining tashkil etilishi. Nomoddiy aktivlar hisobi. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash tartibi va uning hisobi. Kam baxoli va tez eskiruvchi buyumlar hisobi.

Mikrokredit tashkilotlarining kapitali, daromad va xarajatlari hisobi

Mikrokredit tashkilotlarining kapitali va kapital hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar hisobi. Mikrokredit tashkilotlarining daromadlari va ularning manbalari. Mikrokredit tashkilotlarining daromadlarini hisobga olish. Mikrokredit tashkilotlari xarajatlari va ularning tarkibi. Mikrokredit tashkilotlarining xarajatlarini hisobga olish. Mikrokredit tashkilotlari tomonidan to'lanadigan soliqlar va ularning hisobi.

Lombardlar tomonidan bajariladigan operatsiyalar va ularning hisobi

Lombard tashkilotlari va ular faoliyati. Lombard tashkilotlarining kreditlash operatsiyalari. Kreditlarni rasmiylashtirish tartibi. Lombardlar tomonidan mulkni saqlab berish tartibi. Lombard tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi. Lombard tashkilotlari balansi va uning tuzilishi. Lombard tashkilotlarida bajariladigan operatsiyalarni hisobga olish tartibi.

Nobank kredit tashkilotlarining hisobotlari va ularning turlari

Mikrokredit tashkilotlarining joriy hisobot turlari. Lombardlar tomonidan tuziladigan hisobotlar va uning tuzilishi. Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari, turlari va ularning tuzilishi. Nobank kredit tashkilotlari tomonidan moliyaviy hisobotlarning nashr etilishi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Namunaviy o'quv rejasida mazkur fandan seminar mashg'ulotlari rejalashtirishgan bo'lib, unda quyida keltirilayotgan mavzular bo'yicha seminar mashg'ulotlari tayyorlab kelingan konspektlar asosida interaktiv usullar yordamida jonli muloqot, davra suhbat, guruhlarda ishlash, «keys stadi» (muammoli vaziyat echimini topish) echish tarzida tashkil etiladi. Shuningdek, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar talabalar bilimni oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, qonun va me'yoriy hujjatlardan foydalana bilish va boshqalar tavsiya etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari:

1. Nobank kredit tashkilotlari, ularning turlari va tashkil qilish asoslari.
2. Mikrokredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkil etilishi
3. Mikrokredit tashkilotlarining kreditlash operatsiyalari va ularni hisobga olish.
4. Mikrokredit tashkilotlarida kassa operatsiyalarining hisobi.
5. Mikrokredit tashkilotlarining asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, kam baholi

va tez eskiruvchi buyumlari hisobi.

6. Mikro kredit tashkilotlarining kapitali, daromad va xarajatlari hisobi.

7. Lombardlar tomonidan bajariladigan operatsiyalar va ularning hisobi.

8. Nobank kredit tashkilotlarining hisobotlari va ularning turlari.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim – talabani mazkur ishni individual ravishda bajarish qobiliyatidir. Mustaqil ta'limning maqsadi - talaba o'z faoliyatida o'quv dasturi doirasidagi kerakli nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishidir. Bu bilimlar mustaqil ta'lim vazifalarini samarali bajarishga imkoniyat yaratadi. Talaba o'z xohishi bo'yicha mustaqil ish mavzusi hamda konsultantni kafedra bilan kelishishi mumkin. Mustaqil ta'lim yozma hisobot shaklida, qisqa va to'liq yoritilgan holda, «Banklarda buxgalteriya xisobi va audit» kafedrasiga taqdim etiladi. Hisobotda mustaqil ta'limning mazmuni, mohiyati va muammoni aniq ko'rsatishi shart.

Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

– ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari va audit standartlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

– berilgan mavzular bo'yicha referat tayyorlash;

– seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

– amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

– ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;

– fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;

– nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

– amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

– ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislari tayyorlash;

– o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni:

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qtirishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Maqsad talabalarni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning asosiy tamoyillari uning sistematik tarzda, ya'ni doimiy uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rish kerak.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Mikro kredit tashkilotlarining buxgalteriya balansi.

2. Mikro kredit tashkilotlarining hisobvaraqlar rejasi va uning banklar hisobvaraqlar rejasi bilan o'xshashligi va farqlari.

3. Mikrokredit tashkilotlarining kapitalini shakllantirish.
4. Mikrokredit tashkilotlarining kreditlash manbalari.
5. Mikrokredit tashkilotlarining moliyaviy xizmatlari turlari.
6. Mikrolizing berish bo'yicha operatsiyalar hisobi;
7. Mikrokredit va mikroqarz berish bo'yicha operatsiyalar hisobi.
8. Faktoring, iste'mol krediti bo'yicha operatsiyalari hisobi va ramiylashtirilishi.
9. Mikrokredit tashkilotlarida kassa operatsiyalarini tashkil etish hususiyatlari
10. Mikrokredit tashkilotlarida kirim kassa operatsiyalarining tashkil etilishi va hisobi.
11. Mikrokredit tashkilotlarida chiqim kassa operatsiyalarining tashkil etilishi va bu operatsiyalarni hisobga olish.
12. Mikrokredit tashkilotlarining asosiy vositalar hisobi.
13. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar va ularning hisobi.
14. Lombardlar va ular faoliyatining tashkil etilishi.
15. Lombardlar balansi va uning tuzilishi.
16. Lombardda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari.
17. Lombardda bajariladigan operatsiyalar hisobining tashkil etilishi.
18. Kredit uyushmalari faoliyatining tugatilishi va uning sabablari.
19. Mikrokredit tashkilotlarining buxgalteriya hisobotlari va ularni tuzish tartibi.
20. Mikrokredit tashkilotlari faoliyatining Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi.
21. Lombardlar tomonidan tayyorlanadigan hisobotlar, ularning turlari va tuzilishi.
22. Lombardlar faoliyatining Markaziy bank tomonidan nazorat qilinishi.
23. Nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari va ularning matbuotda e'lon qilinishi.
24. Nobank kredit tashkilotlarida kassa operatsiyalarini tashkil etish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari.
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1438-sonli qarori asosida nobank kredit tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari.
26. Mikrokredit tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan Hukumat qarorlari va ularning ahamiyati.
27. Nobank kredit tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish uquqiy va me'yoriy xujjatlar va ularning ahamiyati.
28. Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etilishi.
29. Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish.
30. Lombardlarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.

Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy xususan, interfaol metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata'lim, amaliy dastur paketlari, taqdimot, elektron didaktik) texnologiyalari qo'llanilishi nazarda

tutilgan.

O'quv jarayonini tashkil etishda mavzularni ko'rgazmali vositalardan, slaydlar, diaproskop va jadvallardan foydalanish asosida o'rganish ko'zda tutilgan. Ayrim amaliy mashg'ulotlarni bajarishda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish tavsiya etiladi. Tahlillar, prognozli ko'rsatkichlarni hisoblash, diagrammalarni, personal kompyuterda elektron jadvallarda Excel dasturi bilan ishlash orqali yorqin namoyon etilishi mumkin.

«Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi» fanini o'rganishda talaba amaliy yordam tariqasida nobank kredit tashkilotlarining hisobot ma'lumotlari va boshqa amaliy materiallar, tegishli chizmalar, jadvallar, slaydlar, tarqatma materiallar bilan ta'minlanadi.

Shu bilan birga, talabalar axborot tizimlari orqali moliyaviy qonunchilik yangiliklaridan xabardor bo'lishlari va o'qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

Darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy

1. Abdullaeva Sh.Z. Pul, kredit va banklar. Darslik. T.: «Iqtisod-Moliya», 2010. - 344 b.
2. Balabanova I.T. Banki i bankovskoe delo. Ucheb. pos. SPb.:Piter, 2007.- 362s.
3. Beloglazova G.N. Bankovskoe delo, 5-e izd., pererab. i dop. Uchebnik 2008. 320 st. Fi.S,
4. Lavrushin O.I. Dengi. Kredit. Banki. - M.:KNORUS, 2007. - 320s
5. Omonov A. Ernazarov N «Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi»O'quv qo'llanma. T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. -76 b.
6. Karaliev T.M. Navruzova K.N. «Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi» O'quv qo'llanma. T.: «Iqtisod-Moliya», 2014. -140 b.
7. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. O'quv qo'llanma TDIU, «MAX-PRINT» MChJ, 2008,- 432 b.
8. Selishchev A.S. Dengi. Kredit. Banki./ A. S. Selishchev. - Spb.: Piter, 2007. - 432s.

Qo'shimcha

9. Bankovskoe delo: Uchebnik. Pod. red. G. N. Beloglazova. - B.m.: M.:»Finansi i statistika», 2010. 592s
- 10.Smulov A. M. Promishlennie i bankovskie firmi: vzaimodeystvie i krizisnie situatsii. 2009. 496 st. Fi.S,
- 11.Lavrushin O.I.,Afanaseva O.N., Kornenko S.L. Bankovskoe delo: sovremennaya sistema kreditovaniya. - M.: KNORUS, 2009.-256 s.
- 12.Internet saytlari
<http://www.cbu.uz>.
<http://www.bfa.uz>
<http://www.uba.uz>
<http://www.agrobank.uz>
<http://www.ipotekabank.uz>
<http://www.bankclup.ru>
<http://www.bankdelo.ru>
<http://www.ipocredit.ru>
<http://www.bankreferatov.ru>

